

Olmalıq shahrida joylashgan "MAXAM-UZBEKISTAN" O'zbek-Ispan qo'shma korxonasi MCHJda sodir bo'lgan portlash yuzasidan "O'zkimyosanoat" AJ RASMIY BAYONOTI

// 16 June 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-uzbekiston-uzbek-ıspan-qushma-korxonasi-mchj-rasmiy-bayonot>



Joriy yilning 15-ıyun kuni soat 17:55larda Toshkent viloyatining Olmalıq shahridagi "Ammofos-Maksam" AJ hududida ijara asosida faoliyat yuritadigan "MAXAM-UZBEKISTAN" O'zbek-Ispan qo'shma korxonasi MCHJning "Reoxit" portlovchi moddasini ishlab chiqarish sexida (Bino 2018-yilda pıshiq g'ıshdan qurilgan bo'lib, o'lchami 15x30, balandligi 12 metr) texnologik reglament buzilishi natijasida portlash sodir bo'lgan.

Voqea sodir bo'lgan vaqtda sexdan taxminan 10 metr uzoqlikda bo'lgan, "Logistika-plyus" MCHJga qarashli suyuq ammiakli selitra maxsulotini tashishga mo'ljallangan DAF rusumli, sig'imi 30 tn tank konteyneri haydovchisi, 1973-yilda tug'ilgan N.N.M chap oyoq boldir sohasida ochiq sinishi, ko'krak qafasi ishishi bilan Olmalıq shahar Markaziy shifoxonasining jonlantirish bo'limiga yotqizilgan. Hozirda ahvoli qoniqarli.

Voqea joyiga zudlik bilan Favqulodda vaziyatlar vaziri, FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar

muammolarining ilmiy tadqiqot instituti boshlig'i (navbatchi guruhi bilan), Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi rahbariyati hamda 3 ta yong'in-qutqaruv bo'linmalari yetib borishgan.

Hozirda holat yuzasidan tergov-surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati